

Noan'anaviy harbiy operatsiyalar

*CHOQMBYU Taktika va UQF
kafedrası katta o'qituvchisi
podpolkovnik E.Axmedov.*

Dunyoda kuchlarni joylashishining tub o'zgarayotgan vaziyatida harbiy kuchlarni qo'llash jarayoni o'z manfaatini ta'minlashi uchun no'anaviy harbiy operatsiyalar mazmun mohiyatining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Boshlashdan oldin yaxshi tushunib olish uchun taktik harakatlarning shakliga tushuncha beraman.

Operatsiya – belgilangan davr mobaynida strategik (operatsion) yo'nalishlarda yoki katta hududlarda yagona g'oyaga asosan strategik, tezkor, taktik-tezkor tadbirlarni o'tkazishda qo'shinlar bilan ketma - ketlikda manyovr o'tkazish, zarba berish, jang va urushlar olib borishda bir maqsadga yo'naltirilgan vazifasi, joyi, vaqtini muvofiqlashtirgan majmua yig'indisidir.

Noan'anaviy harbiy operatsiya – yagona reja va harbiy yoki ma'muriy boshqaruv organi rahbarligi ostida tinchlik yoki harbiy holat sharoitlarida bir vaqtning o'zida yoki ketma-ketlikda milliy yoki koalitsion kuchlar tomonidan joyi, vaqti, maqsadi va vazifalari muvofiqlashtirgan jangovar hamda nojangovar harakatlar olib borish tizimidir.

Noan'anaviy harbiy operatsiya–«urushlar bo'lmayotgan sharoitda harbiy operatsiya» termini qo'shirlarning (kuchlarning) harakatini birlashtiradigan keng yig'uvchi spektr bo'lib – qurolli kuchlarga xos bo'lmagan vazifalarni bajarish yo'nalishida harbiy kuchlarni namoyish etishdan to qurolli bosqinchilik harakatlarini amalga oshirishidir.[1]

Jahonda kuchlarning taqsimlash tub ravishda o'zgarishi sharoitida o'z manfaatini ta'minlash maqsadida harbiy kuchlarni qo'llashda barqaror moyillik kuzatilib noan'anaviy harbiy operatsiyalar moxiyati o'smoqda.

Ularni tayyorgarligi va o'tkazilishi uchta asosiy maqsadni ko'zlaydi:

-milliy va koalitsion xavfsizlik tahdidiga qarshi javob qaytarmoq;

-milliy va koalitsion manfaatni olg'a siljishini himoya qilishda ijobiy sharoitni shakllantirish;

-kutilmagan holatlar sharoitida harakatlarga tayyorgarlik ko'rish

Qurolli kuchlarning o'ziga xos bo'lmagan vazifalari

“Qurolli kuchlarning o'ziga xos bo'lmagan vazifalari” termini muayyan tarixiy xarakterga ega. Uning yuzaga kelishi QK ning birdan-bir mo'ljallanishi qurolli kurashni olib borishning vaqtida yuksalgan. Zamonaviy sharoitda QK vazifalari ko'pincha o'ziga xos bo'lmaganligi funksional darajaga o'tib rasmiy status oldi. Turli-tuman NHO QK ni eng yaxshi qurol-aslaha bilan ta'minlash, shaxsiy tarkibni tayyorgarligi, davlatning noharbiy va tijorat tizimlari bilan yangi qoidalar asosida hamkorlik qilishni talab etadi. Ilk bor “**no'anaviy harbiy operatsiya**”ning termini rasman AQSH Quruqlikdagi qo'shinlarining dala nizomida 1993 yilda kiritilgan.

Vazifani bajarishda fuqarolarning ma'muriy organlariga yordam

ko'rsatish:

-iqtisodiy; ekologik; informatsion; targ'ibot; ruhiy; huquqiy-tartibot; bojxonaga oid vazifalarni bajarish.

Harbiy harakatlar bo'ladi: urush vaqtida olib boriladigan, urush bo'lmayotgan sharoitdagi operatsiya

Harbiy harakatlarning turlari mudofaa, hujum, vaziyatni barqarorlashtirish, ta'minot. **Harbiy harakatlarning shakli**

operatsiya, jang, noan'aviy harbiy operatsiyalar (urush bo'lmayotgan sharoitda).

Noan'aviy harbiy operatsiyalarning asosiy maqsadi

urushlarni to'xtatish; mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish, osoyishtalikni ta'minlash

Noan'aviy harbiy operatsiyalarni o'tkazish sharoiti

-harbiy harakatlar teatrida to'la qo'lamdagi urush;

-tinchlik davrida «cheklangan» harbiy faoliyat va jangovar harakatlar.

Qo'shnlarni harakat tavsifiga ko'ra noan'anaviy harbiy operatsiyalar bo'linadi -barqarorlashtirishga, ta'minlanishga

Qo'shin (kuch) larning harakat masshtabiga ko'ra strategik, tezkor (operativ), taktik

Vaziyatni barqarorlashtirish operatsiyalari

- xorijiy davlatlarning ichki xavfsizligini ta'minlashda yordam ko'rsatish;
- milliy xavfsizligini ta'minlash maqsadida yordam ko'rsatish;
- terrorizmga qarshi kurashda kuchlarini namoyish etish;
- gumanitar yordam ko'rsatilishini ta'min
- narkobiznesga qarshi kurash
- aholini evakuatsiya qilish
- qurol-aslahalarni nazorat qilish
- qo'zg'olonchi (isyonchi) harakat kuchlarni qo'llab quvvatlash
- tinchlik o'rnatish (mirotvorcheskie)

Tinchlik o'rnatish operatsiyasi maqsadiga muvofiq tinchlikni saqlash (hamma krizis ishtirokchilari roziligi bilan o'tkaziladi), tinchlikka majburlash (rozilik olmasdan harbiy kuch usullarini qo'llash yoki ularni qo'llashda tahdid qilish bilan tavsiflanadi) va diplomatik urinishlarni qo'llab quvvatlash.

Tinchlik o'rnatish yo'lida harbiy operatsiyalar to'rt turga bo'linadi: tinchlikni saqlash, osoyishtalik o'rnatish, aholini evakuatsiya qilish va gumanitar yordam ko'rsatish.[1].

O'z navbatida tinchlik o'rnatish va osoyishtalikka majburlash operatsiyalari tomonlarni kuch bilan ajratish, qo'riqlanayotgan hududlarni, mojaro zonalarida tadbiq etilgan sanksiya va cheklashlarni nazorat qilish operatsiyalariga bo'linadi.

Xorijiy davlatlarning ichki xavfsizligini ta'minlashda yordam ko'rsatish operatsiyasi maqsadga muvofiq quyidagi turlarga bo'linadi:

-umumiy qo'llab quvvatlash (xorij davlatining iqtisodiy va milliy infratuzilmasini yaratishga ko'maklash);

-bevosita qo'llab quvvatlash (xorijiy davlatlarga jangovar harakatlar olib bormasdan razvedka, aloqani tashkillashtirish va qo'shinlarini front orti bilan ta'minlashga yordam ko'rsatish);

-mintaqaviy davlatlarning qurolli kuchlariga jangovar operatsiyalar o'tkazishini qo'llab quvvatlash(terrorchilar va isyonchilarga qarshi kurashda bevosita qatnashib ko'mak berish).

Milliy xavfsizligini ta'minlash maqsadida yordam ko'rsatish operatsiyasi milliy siyosatini qo'llab quvvatlashda qonunlarga rioya etib mudofaani ta'minlash, harbiy jihatdan xorijiy davlatlarga o'quv mashqlar o'tkazish va boshqa xizmat ko'rsatish maqsadida o'tkaziladi.

Fuqarolarga gumanitar yordam ko'rsatilishini ta'minlash operatsiyasi harbiy harakatlar mobaynida yordam ko'rsatish tashkil etiladi hamda to'lamasshtabli o'quv mashqlar va manyovrlar davomida.

Isyonchi harakatlarni qo'llab – quvvatlash bo'yicha operatsiyalar – mavjud tizimga qarshi chiqayotgan, milliy manfaatlarga va mintaqaviy mo'tadillikka taxdid soluvchilar bilan kurashayotgan kuchlarni har tomonlama ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Narkobiznesga qarshi kurashni qo'llab – quvvatlash operatsiyalari – davlat xizmatlari va idoralari bilan birgalikda o'tkaziladi. Mazkur operatsiyalar davlat ichkarisida va uning hududidan tashqarida birdek o'tkazilishi mumkin. Ularning o'ziga xosligi shundaki, bularda qo'shinlarning (kuchlarning) ishtiroki jamoatchilikni axborot bilan ta'minlash va qonunchilikka rioya qilishga xayrixohlik bilan cheklanadi

Fuqoro aholisini evakuatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar – xavfli hududlardan, jumladan chet el davlati hududidan fuqorolarni (o'zining va chet elliklarni) olib chiqish.

Qurol – aslahalarni nazorat qilish bo'yicha operatsiyalar muttasadi xalqaro shartnomalar va majburiyatlarni bajarilishini shuningdek maxsus organlarga zarur yordamlar ko'rsatishni o'zida mujassam etadi. Ularning quyidagi ko'rinishlari mavjud: YAQQ aniqlash, qo'lga kiritish va yo'q qilish; maxsus

yuklar va ashyolar ortilgan konvoylarni kuzatib borish; taftishlar o'tkazish; YAQQ ni ishlab chiqarish va saqlashni kuzatish va nazorat qilish; qurol – aslaha va harbiy ob'ektlarni xavfsizligini ta'minlash manfaatida chet el harbiy xizmatchilarini tayyorlash.[1]

Kuchlarni namoish qilish bo'yicha operatsiyalar – salohiyatli tajavvuzkorni taxlikaga solish va qo'rqitish, belgilangan mintaqada (hududda) o'z ta'sirini kuchaytirish va mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

Terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha operatsiyalar – ikki toifaga bo'linadi; terrorchilik xurujlarini bartaraf qilish va terrorchilarni yo'q qilish. Qo'shinlarning harakatlari tavsifiga ko'ra ular quyidagicha bo'linadi; xujumkor - kontrterroristik (maqsadi - terrorchilik xurujlar oqibatlarini oldini olish va susaytirish hamda terrorchilarning harakatlariga javoban harakatlar olib borish) hamda mudofaali - aksilterroristik (maqsadi – terrorchilar tomonidan davlat va harbiy o'ektlarga etkaziladigan zararlarni kamaytirish).

Ta'minlovchi operatsiyalar

davlatlararo, chet el davlatiga gumanitar yordam ko'rsatish

davlatlararo: jamoat tartibini tiklash bo'yicha choralarga yo'naltirilgan operatsiyalar.

chet el davlatiga gumanitar yordam ko'rsatish: gumanitar yordam ko'rsatish bo'yicha operatsiyalar.

«Noan'anaviy» harbiy operatsiyalar tizimi

-operatsiyaning turi (qo'shinlarning harbiy harakatlariga qarab);

-operatsiyaning toifasi (ko'zlanayotgan maqsadlarga monand);

-operatsiyaning ko'rinishlari (hal qilinayotgan vazifalar bo'yicha);

-tayyorlash va olib borish sharoiti (mavjud vaqt bo'yicha);

-kuchlar va vositalar tarkibi (harakat qilish ob'ektlari soniga monand);

-qo'lam (jalb qilinadigan kuchlar va vositalar tarkibiga ko'ra, hududiy qamrovga va operatsiyaning umumiy strategik,operativ, taktik, o'quv – jangovar yoki xududiy harbiy vazifasiga qo'shgan hissasiga ko'ra);

-boshqaruvning o'ziga xosligi (boshqaruv organiga ko'ra: harbiy yoki fuqarolik);

-o'tkazish joyi (milliy xududda yoki uning tashqarisida.

CHET EL ARMIYALARINING «NOAN'ANAVIY» HARBIY OPERATSIYALARI

- **harbiy harakatlarning turiga ko'ra** – mudofaali va hujumkor;

-**maqsadiga ko'ra** – mo'tadillashtiruvchi va ta'minlovchi.

Vazifalariga ko'ra:

-tinchlikparvar (tinchlikni saqlash bo'yicha, tinchlikka majburlash bo'yicha, diplomatik say – harakatlarni qo'llab quvvatlash bo'yicha);

-yordam ko'rsatish bo'yicha (chet el davlatlarining ichki xavfsizligini ta'minlash, o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida gumanitar yordam ko'rsatish, texnogen halokatlar va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf qilish).

X U L O S A L A R

1.Noan'anaviy harbiy operatsiyalarning mohiyati shundaki, avvalambor ular davlatlarga o'zlarining milliy manfaatlarini olg'a surish usullarini tasavvur etadilar.

2.NHO ning asosiy mazmuni qo'shinlarning qoidaga ko'ra operativ va taktik miqiyoslardagi, mumtoz ko'rinish yoki vaziyatni mo'tadillashtirish bo'yicha vazifalarni hal qilishga, mumtoz harbiy harakatlarni yoki noharbiy kurashning shakllari (siyosiy, iqtisodiy, diplomatik, axborot va boshqalar) ta'minlash tushunchalariga mos kelmagan harakatlari hisoblanadi.

3.CHet el mamlakatlarining NHO ni mumtoz harbiy operatsiyalardan asosiy farqi shundaki, ular mazkur operatsiyalarda kamida operativ – taktik birlashmani qo'llanilishini va operativ – taktik miqiyosdagi vazifani bajarilishi shart deb ko'zda tutmaydilar, shuningdek biror bir boshqaruv organi tomonidan boshqarilishga muhtoj emaslar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Интернет сайты. [ptth://www.нетрадиционные военные операции](http://www.нетрадиционные военные операции).